



TASSAVUF VA KOMIL INSON G'OYASI

Sattarov I'nomjon Odilbay o'g'li

Samarqand davlat universiteti Falsafa (qo'llash sohasi) mutaxassisligi

magistranti, inomjonsattarov8@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6080252>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05-fevral 2022

Ma'qullandi: 10-fevral 2022

Chop etildi: 15-fevral 2022

KALIT SO'ZLAR

Tasavvuf, komillik, komil inson, ma'naviyat, xulq-atvor, umuminsoniy, urf-odatlar, axloq, miliy, qadriyat, dunyoqarash, bag'rikenglik, o'zaro hurmat, ma'rifat, milliy qadriyat, axloqiy munosabat, kamtarlik, sharmu hayo, or-nomus.

Shu bilan birga, jahonda g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar keskin davom etayotgan, ma'naviy tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi davrda yoshlar o'rtasida milliy qadriyatlarga bepisandlik, zararli yot g'oyalar ta'siriga berilish, jinoyatchilik va ekstremizm harakatlariga adashib qo'shilib qolish holatlari hamon uchramoqda. Shu bois mazkur tizimda, ya'ni ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ta'sirchanligini oshirish, ma'naviyat sohasidagi tassavuf ta'limotining ahamiyati beqiyosdir.

Tasavvuf, sufiylik — islomda insonni ruhiy va axloqiy jihatdan komillik sari

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa, yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni komillik darajasida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

yo'llovchi ta'limot. Tasavvuf so'zining o'zagi va mazmuni haqida olimlar turli fikr va taxminlar bildirishgan.¹ Ular ichida Ibn Xaldunning fikri haqiqatga yaqin deb e'tirof etilgan. U "Muqaddima" asarida tasavvuf "suvf" — "jun", "po'stin" so'zidan olingan bo'lishi kerak, zero qadimdan tarkidunyo qilgan zohidlar jundan to'qilgan kiyim yoki po'stin kiyib yurishni odat

Komilov N., Tasavvuf (1-kitob), T., 1999; Juzjoniy A. Sh., Tasavvuf va inson, T., 2001; Haqqulov I., Tasavvuf saboqlari, Buxoro, 2000.



qilganlar, bu bilan ular bashang kiyinib yuruvchi axli dunyolardan farqli hayot tarzini o'zlarida namoyon etganlar, deydi. Undan oldingi davrlarda bu atama o'rnida "zuhd" ("zohidlik", "tarkidunyochilik"), "taqvodorlik", "parhezkorlik" kabi so'zlar orqali ishlatilgan.

Tasavvufdan saboq oluvchi shaxs — murid, solik, axli dil, axli hol, mutasavvif kabi nomlar bilan atalgan. Tasavvuf bo'yicha oliy maqomlarga erishgan sohibkaromat pirlar — valiy, avliyo, qutb, aqtob, avtod, chilton, abdol, abror, ahror, nujabo, nuqabo, siddiq kabi nomlar bilan atalgan. Tasavvuf ahli ba'zan oshiq, faqir, haqir, darvesh, qalandar, zohid, orif, devona, ahli muhabbat, ahli suluk, rijolulg'ayb, savdoyi, gado kabi atamalar bilan ham ifoda etilgan. Shuning uchun haqiqat, majoz, tashbeh, istiora kabi mantiqiy qoidalaridan boxabar bo'lmagan kitobxon Navoiy, Fuzuliy, Atoyi, Umar Xayyom kabi mumtoz adabiyot namoyandalarining she'rlarini to'la anglashi qiyin kechadi. Tasavvuf tarixida ko'pgina olimlar tasavvufga doir so'zlar izohiga bag'ishlangan lug'at va qomuslarni yozib qodsirganlar. Ulardan ayrimlari O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda. Tasavvuf tariqatlarining insoniyat ma'naviyatini yuksaltirishga qo'shib kelayotgan benazir hissasi butun dunyo xalqi tomonidan e'tirof etilsada, ba'zan islom olamida tasavvufga salbiy nazar bilan qarash, uning tariqatlari, mashoyixlari va karomatlarini inkor etish ko'zga tashlanadi. Burhoniddin al Biqoiyning "Tasavvuf inqirozi", Abdurahmon Dimashqiyaning "Naqshbandiya taxlili" kitobi va boshqa kitoblarda tasavvufning barcha tariqatlari va ularga doir asarlar hamda mashoyixlar qattiq tanqid qilingan. Aziz avliyolarning maqbara va mozorlarini ziyorat qilish shirk deb sanalgan. Vaholanki, ularning bu da'volari shar'an asossizdir. Islom huquqshunosligida, ya'ni

shar'iy ko'rsatmalarni amalga tatbiq etishda 4 ta fiqxiy mazhab bo'lganidek, Tasavvufda ham bir necha tariqatlar shakllangan. Mashhurlari — tayfuriya, junaydiya, hakimiya, qodiriya, yassaviylik, malomatiylar, rifo'iy, kubroviylik, suhravardiylik, chishtiya, akbariya, shoziliya, bektoshiya, mavlaviya, naqshbandiya, sanusiya tariqatlaridir. Mustaqillik yillari mamlakatimizda tasavvuf tariqatlarini o'rganish, unga doir asarlarni tarjima qilish, atoqli mashoyixlarning maqbaralarini qayta qurish va ta'mirlashga kata ahamiyat berilgan. Hakim Termiziy, Najmiddin Kubro, Abduxoliq G'ijduvoni, Xoja Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy, Shayx Zayniddin, Zangi ota, Shayx Xovandi Tohur va boshqa ko'plab tasavvuf tariqatlariga mansub piri komillarning xayot va ijodlarini chuqur o'rganish, qoldirgan asarlaridan xalqimizni bahramand etish borasida muayyan ishlar qilindi.

Bundan tashqari tasavvufshunos olim Najmiddin Komilov ta'biri bilan aytganda, "o'rta asrlardagi yaxshi axloq, komil inson haqidagi tushunchalar nisbiy xususiyatga ega ekanligi bilan bir tomondan, jami ruhiy-ma'naviy qudrat, aqlu-zakovat, yaxshi sifatlarning jamuljami hisoblangan mavhum bir zot tushunchasi, ikkinchi tomondan, shu cho'qqiga intilib, muayyan martabalarga erishgan kishi ham komil inson deb hisoblangan." deb aytgan edi. Jaloliddin Jaloliddin Rumiy barcha tasavvuf ahli bilan uyg'un holatda komil inson haqida fikr yuritgan va bu haqdagi ta'limotini o'z asarlarida bayon etgan. Uning asarida asl inson, xos inson va haqiqiy inson tushunchalari bor. Bular ichida haqiqiy inson eng komil inson deya ta'riflangan.

Misrlik olim Ibrohim Basyuniy "Islomda Tasavvufning paydo bo'lishi" kitobida hijriy 3 va 4-asrlarda yashab o'tgan olimlarning tasavvuf haqidagi 40 ta ta'rifini keltiradi.



Xulosa qilib aytish mumkinki, tasavvuf islom shariati talablarini ham ixlos bilan bajargan g'olda zuxd, taqvo, kamtarlik kabi olijanob fazilatlarini o'zida mujassam etib, nafsni poklash yo'li bilan komil inson darajasiga erishishga harakat qilishdan ibora. Tasavvuf tasavvufning o'ziga xos istilohi mavjud. Masalan, tasavvuf ilmidan saboq beruvchi shaxs — shayx, murshid, pir, eshon, xoja, mavlo, mavlono, maxdum kabi unvonlar bilan tanilgan.

Nafsdan kechmoqning insonni komillikka eltuvchi yo'l deya tushuntirildi. Shu ma'noda komil inson fazilatlarini quydagicha ta'rif va tasnif etish mumkin deb hisoblaymiz:

Komil inson muammosi insoniyat tarixida hamisha dolzarb muammo bo'lib kelgan va bu mavzuga doir ko'p izlanishlar amalga oshirilgan. Biz XXI asrni intellektual, har tomonlama rivojlangan yoshlar asri deymiz. Bosh maqsadimiz komil inson tarbiyasi bo'lar ekan, ruhiy kamolot bilan bog'liq ma'naviy jihati, nafs tarbiyasi va qalb orqali mutloq xaqiqatni idrok etish masalasi ilmiy nuqtai nazardan jiddiy tadqiq etilishi lozim bo'lgan jumboq ekanligi ma'lum. Biror ta'limot, fan yoki hunarni yoshlar ongiga singdirishda avval mazkur, yo'nalishlar haqida atroflicha tushuncha berish zarur. Ma'lumki, tasavvufda ilg'or fikrli kishilarni oriy, sufiy, valiy deb qaralgan. Bularni bir-biridan farqlanishi ichki, botiniy imkoniyatlar bilan o'lchangan.

Komillik haqida so'z yuritsak, demak bu payg'ambarlik sifatlaridan biri sifatida tushunsak bo'ladi. Bizningcha mazkur komil inson g'oyasini yanada tushunarliroq bo'lishi

uchun insonlarning sifatleri yanada soddalashtirib tushuntirish lozim.

Komil inson-odamzod orzu qilgan jamiki ezgu hislatlarini ifodachisi, u mutloq ruh bilan insoniyat o'rtasida vosita bo'luvchi muqaddas hilqat, insonlarning eng mukammali, eng aqlli va donosi, ya'ni eng oliysi bo'lib u oddiy inson suratida ko'rinsa ham lekin ma'nan koinotni qamrab olgan, hamisha bedor va hamma narsadan xabardor bir zot, kishilik jamiyati ichidan yetishib chiqadigan mo'tabar zotdir.

Xulosa qilib aytganda darhaqiqat, o'tmish allomalarimizning asarlarini, ta'limotlarini o'rganish va ularni zamonaviy metodlar asosida tadqiq va tahlil etish qanchalik sharafli ish hisoblansa, uning mas'uliyati ham shunchalik kuchlidir.

Bugungi kunda mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida yoshlarning zamon talablari darajasida ta'lim-tarbiya olishi, vatanparvar bo'lishi, o'z kuchi, bilim va salohiyatini namoyon etishi uchun barcha sharoit yaratilmoqda. Zero, intellektual salohiyati yuqori, dunyoqarashi keng, mustaqil fikrlaydigan avlodni voyaga yetkazish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugun yurtimizda yoshlarimizni har tomonlama zamon talablariga munosib kishilar qilib tarbiyalash, ularda vatanparvarlik tuyg'ularini qaror toptirishda milliy qadriyatlarimiz, xalqimiz ma'naviy merosidan samarali foydalanishning ahamiyati tobora oshib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2017. -28-b.
2. Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob.- Toshkent, "Yozuvchi" 1996. 153-bet.



3. Jaloliddin Rumiy. Ma'naviy va masnaviy. 2-jild. Asqar Mahkam tarjimasi va sharhi. Toshkent, 2007, B 23
4. Jaloliddin Rumiy. Ma'naviy va masnaviy. 4-jild. Jamol Kamol tarjimasi. Toshkent, 2004, B 68
5. Usmon Nuriy To'pbosh. Bir ko'za suv (Masnaviy va ma'naviy asari tahlili). Toshkent, 2007, B125